

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI BAHOLASHDA XORIJIY BANK TAJRIBASI VA UNI MAMLAKATIMIZ BANKLARI FAOLIYATIDA QO'LLASH YO'LLARI

Roziqov Behzod Bahrom o'g'li

*Fan va texnologiyalar universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil
izlanuvchisi Orcid [0009-0009-7693-3288]*

Avazov Obit Maxamatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xorijiy banklarning tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha tajribasi va ushbu tajribani mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash imkoniyati tahlil qilinadi. Tadqiqot rivojlangan mamlakatlarning bank tizimida qo'llaniladigan boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini, bank faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini va bank xatarlarini boshqarish mexanizmlarini o'rganadi. Hisobotda bank faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, raqamli bank xizmatlarini joriy etish, innovatsion texnologiyalar, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish va operatsion samaradorlikni oshirish tahlil qilinadi. Xorijiy banklarning tadqiqot natijalari va tajribasi asosida mamlakatimizda tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, bank samaradorligi, xorijiy bank tajribasi, bank boshqaruvi, bank risklari, raqamli bank xizmatlari, bank innovatsiyalari, moliyaviy barqarorlik, bank samaradorligini baholash, bank tizimi*

ЗАРУБЕЖНЫЙ БАНКОВСКИЙ ОПЫТ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ И ПУТИ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БАНКОВ НАШЕЙ СТРАНЫ

Розиков Бехзод Бахром угли

*Университет науки и технологий, доцент кафедры «Экономики», доктор
философии по экономическим наукам (PhD) Ташкентский государственный
экономический университет, независимый соискатель*

Авазов Обит Махаматович

*Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического
университета*

Аннотация: *В статье анализируется опыт зарубежных банков по оценке эффективности деятельности коммерческих банков и возможность применения данного опыта в деятельности банковской системы нашей страны. В исследовании рассматриваются современные подходы к управлению, показатели*

оценки эффективности банковской деятельности и механизмы управления банковскими рисками, применяемые в банковской системе развитых стран. В отчете анализируются ключевые направления повышения эффективности банковской деятельности, включая внедрение цифровых банковских услуг, инновационные технологии, диверсификацию банковских услуг и повышение операционной эффективности. На основе результатов исследований и опыта зарубежных банков разработаны научно-практические предложения и рекомендации по повышению эффективности деятельности коммерческих банков в нашей стране.

Ключевые слова: *коммерческие банки, банковская эффективность, зарубежный банковский опыт, банковский менеджмент, банковские риски, цифровые банковские услуги, банковские инновации, финансовая стабильность, оценка эффективности банков, банковская система*

FOREIGN BANK EXPERIENCE IN ASSESSING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS AND WAYS TO APPLY IT TO THE ACTIVITIES OF OUR COUNTRY'S BANKS

Rozikov Bekhzod Bakhrom ugli

*University of science and technologies, associate professor of the department
«Economics», doctor of philosophy in economical sciences (PhD)*

Avazov Obit Makhamatovich

Independent researcher of Tashkent State University of Economics

Abstract: *The article analyzes the experience of foreign banks in assessing the effectiveness of commercial banks and the possibility of applying this experience in the banking system of our country. The study examines modern management approaches, indicators for assessing the effectiveness of banking activities and mechanisms for managing banking risks used in the banking system of developed countries. The report analyzes key areas for improving banking efficiency, including the introduction of digital banking services, innovative technologies, the diversification of banking services and increased operational efficiency. Based on the research results and experience of foreign banks, scientific and practical proposals and recommendations have been developed to improve the efficiency of commercial banks in our country.*

Keywords: *commercial banks, bank efficiency, foreign banking experience, banking management, banking risks, digital banking services, banking innovations, financial stability, bank efficiency assessment, banking system*

KIRISH

Hozirgi kunda jahon moliya tizimida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylantirmoqda. Tijorat banklari iqtisodiyotning muhim

moliyaviy institutlaridan biri bo'lib, ular iqtisodiy subyektlar o'rtasida moliyaviy vositachilikni amalga oshirish, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish hamda uni baholashning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar bank tizimida bank samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, risklarni samarali boshqarish hamda bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Osiyo davlatlari bank tizimida bank faoliyatini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR) kabi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Shu bois xorijiy banklar tajribasini o'rganish va ularni milliy bank tizimi faoliyatida qo'llash masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish, tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish hamda ularning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bank tizimini rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, bank xizmatlari sifatini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir" [1]

Shuningdek, davlat rahbari bank tizimining iqtisodiyotdagi ahamiyatini ta'kidlab, shunday deydi: "Zamonaviy bank tizimi iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi".[2]

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishni baholashda xorijiy banklar tajribasini chuqur o'rganish hamda ularni milliy bank tizimi faoliyatida qo'llashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy banklar tajribasini tahlil qilish, ularning bank samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini o'rganish va mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari samaradorligini oshirishni baholash hamda xorijiy banklar tajribasini o'rganish iqtisodiyot nazariyasi va bank menejmenti sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bank tizimi iqtisodiyotning moliyaviy infratuzilmasining asosiy bo'g'ini sifatida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash, samaradorlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda rivojlangan davlatlar bank tizimi tajribasini o'rganish iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bank faoliyati samaradorligini oshirish masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilib, unda bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, operatsion xarajatlar darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi hamda raqamli bank texnologiyalarini joriy etish kabi omillarning muhimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, xorijiy banklar tajribasi asosida bank faoliyatini baholashning zamonaviy usullari, moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi hamda bank risklarini boshqarish mexanizmlari keng o'rganilgan. Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish tijorat banklari samaradorligini oshirishni baholashning nazariy asoslarini aniqlash hamda xorijiy tajribani mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan M.Mamonov, A. Vernikovlar «stoxastik chegara usuli yordamida tijorat banklarining samaradorligini o'rganib chiqishgan. Mualliflar yirik davlat banklarining xususiy va xorijiy banklarga nisbatan samaradorligini, shuningdek, kreditlash bozorida Lerner indeksi bilan o'lchanadigan banklarning samaradorligi va bozor kuchi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni aniqlaganlar».[3]

A.Alhassan, M.Tettehlarning fikricha, «bank faoliyati samaradorligi va ko'lami o'rtasidagi chiziqli bo'lmagan munosabatlarni tavsiflashadi: xususan, ijobiy munosabatlar faqat aktivlarning ma'lum hajmigacha kuzatiladi, shundan so'ng samaradorlik pasayadi».[4]

C.Almanza, J Rodriguezlar, «samaradorlikdagi tafovutlarni asoslash uchun yirik banklar katta kredit va bozor xatarlarini qabul qilish bilan tavsiflanadi, kichik banklar esa ko'proq mablag' manbai sifatida o'z mablag'lariga ko'proq e'tibor berishadi» deya ta'kidlashadi.[5]

V.Belousova, A.Karminsky, N.Myachin, I.Kozyrlar «xorijiy va davlat banklari katta samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlab o'tgan. Uning tadqiqotlari, shuningdek, ixtisoslashuv (aktivlar va jalb qilingan mablag'lar tarkibi) va tavakkalchilikka moyillik (kredit xavfi ko'rsatkichlari, likvidlik va ochiq valyuta pozitsiyasi) kabi omillarni hisobga olgan».[6]

Yuqorida keltirilga fikrlarga Z.Zhou va boshqalarning tadqiqotlarida qarama-qarshi xulosalar keltirilgan, «unga ko'ra, tartibga solishni liberallashtirishni o'z ichiga olgan moliyaviy islohotlar tijorat banklari samaradorligini oshirishga yordam bermaydi» deb ta'kidlab o'tganlar. Boshqa tomondan, «ba'zi tadqiqotlar raqobatning tijorat banklari samaradorligiga ijobiy ta'sirini birinchi navbatda operatsion xarajatlarni optimallashtirish orqali ko'rsatadi».[7] deya fikr bildirishganlar.

E.Osuagwu, W.Isola, I.Nwaogwugwularning tadqiqotlarida, «bank faoliyatining o'ziga xos xususiyati uning yuqori tartibga solinishi bo'lib qolmoqda, bu to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy bozorlarning barqarorligini ta'minlash zarurati bilan izohlanadi. Tartibga solishning milliy xususiyatlari tijorat banklari samaradorligidagi farqlarni belgilashligi keltirib o'tilgan».[8]

G,Li Yang, N.Noora, M.Bakri, W.Yusof, N.Noora, N.Zainal esa «bank tizimlarining qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqotlar bankni tartibga solish va nazoratning

kuchayishi kredit tashkilotlarining faoliyat ko'lamidan qat'i nazar, ularning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi» [9] deya fikr bildirishganlar.

S. Moudud - Ul - Huq esa, «BRIKSga a'zo mamlakatlarda, shu jumladan Rossiyada tijorat banklarining samaradorligiga kapitalning etariligi talablarining kuchayishi ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan».[10]

Yuqorida keltirilgan xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va oshirish masalasi ko'p omilli hamda murakkab iqtisodiy jarayon ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda bank faoliyati samaradorligi bank hajmi, bozor kuchi, risklarni boshqarish darajasi, bank tizimini tartibga solish siyosati hamda kapital yetariligi kabi omillar bilan bevosita bog'liq holda talqin etilgan. Ayrim olimlar bank samaradorligini oshirishda bozor raqobati va operatsion xarajatlarni optimallashtirish muhim rol o'ynashini ta'kidlagan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda bank tizimini tartibga solish darajasi va moliyaviy liberallashtirishning samaradorlikka ta'siri turlicha baholangan.

Muallifning fikricha, tijorat banklari samaradorligini oshirishni baholash jarayonida faqat moliyaviy natijalar yoki alohida ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bank samaradorligini baholash kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim bo'lib, bunda bankning moliyaviy ko'rsatkichlari, boshqaruv tizimi samaradorligi, risklarni boshqarish darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi birgalikda tahlil qilinishi zarur.

Shuningdek, xorijiy banklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank faoliyati samaradorligini oshirishda zamonaviy bank boshqaruvi, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda risk-menejment tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan davlatlar bank tizimida qo'llanilayotgan samaradorlikni baholash usullari va boshqaruv mexanizmlarini o'rganish hamda ularni mamlakatimiz bank tizimi faoliyatiga moslashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muallifning ilmiy qarashiga ko'ra, xorijiy banklar tajribasini mamlakatimiz bank tizimida qo'llash jarayonida milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, bank tizimining rivojlanish darajasi hamda makroiqtisodiy sharoitlarni inobatga olish zarur.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklari samaradorligini oshirishni baholashning xorijiy banklar tajribasi hamda uni mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Jumladan, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy abstraksiya hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llaniladi. Tadqiqot jarayonida rivojlangan davlatlar bank tizimida qo'llanilayotgan samaradorlikni baholash usullari, bank boshqaruvi mexanizmlari hamda moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi o'rganiladi.

Asosiy qism. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish zamonaviy bank tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi asosiy institut sifatida investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish, pul oqimlarini samarali taqsimlash hamda

iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli banklar faoliyati samaradorligini baholash va uni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bank tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar bank tizimida bank faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan turli boshqaruv mexanizmlari, innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi keng qo'llaniladi. Xususan, AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Singapur bank tizimida bank samaradorligini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR) hamda kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu indikatorlar bank faoliyatining moliyaviy natijalari, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda risklarni boshqarish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy banklar tajribasini tahlil qilish va ularning samaradorlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini o'rganish mamlakatimiz bank tizimi faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot doirasida xorijiy banklar tajribasi asosida tijorat banklari samaradorligini oshirishni baholashning asosiy yondashuvlari tahlil qilinadi hamda ularni mamlakatimiz banklari faoliyatida qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi. Olingan natijalar bank faoliyati samaradorligini oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Germaniya taraqqiyot banki tomonidan samaradorlikni oshirish yo'llari³⁰


Yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan yo'nalishlar xorijiy banklar tajribasida bank samaradorligini oshirishning muhim mexanizmlari hisoblanadi. Ushbu tajribalarni mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash tijorat banklari faoliyatining

³⁰ <https://www.kfw-entwicklungsbank.de> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

samaradorligini oshirish, bank xizmatlari sifatini yaxshilash hamda bank tizimining xalqaro moliya bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

AQSH bank tizimida tijorat banklari samadorligini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA) muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Odatda AQSH bank tizimida ROA ko'rsatkichi 1 foizdan yuqori darajada bo'lishi bank faoliyatining samarali ekanligini bildiradi. Shuningdek, kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichi bank kapitalidan foydalanish samadorligini ifodalaydi va yirik banklarda ushbu ko'rsatkich odatda 10–15 foiz atrofida shakllanadi. Bundan tashqari, AQSH bank tizimida sof foiz marjasi (NIM) banklarning asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib, kredit operatsiyalarining samadorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bank tizimida bank samadorligini baholashda operatsion samadorlikka alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR) bankning operatsion samadorligini ifodalovchi muhim indikator hisoblanadi. Yevropa bank tizimida ushbu ko'rsatkich odatda 50–60 foiz atrofida bo'lishi bank faoliyatining samarali tashkil etilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va Yevropa bank tizimida ushbu ko'rsatkich Basel standartlariga muvofiq shakllantiriladi.



2-rasm. Yaponiya taraqqiyot banki tomonidan bank faoliyati samaradorligini baholash yo'llari³¹

Yuqoridagi 1-rasmda Yaponiya bank tizimi tajribasi asosida tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashning institutsional modeli aks ettirilgan. Ushbu model bank tizimida moliyaviy vositachilik jarayonlari, bank faoliyatini baholash ko'rsatkichlari hamda samaradorlikni ta'minlovchi institutsional omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi.

Rasmga ko'ra, bank tizimining asosiy subyektlari sifatida uy xo'jaliklari, moliyaviy vositachilar va korxonalar o'rtasida moliyaviy resurslar harakati amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklari o'z mablag'larini depozitlar shaklida moliyaviy vositachilarga joylashtiradi. Moliyaviy vositachilar tarkibiga banklar, brokerlik tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari, aktivlarni boshqaruvchi institutlar hamda birjalar kiradi. Ushbu institutlar orqali jalb qilingan moliyaviy resurslar korxonalarga investitsiyalar shaklida yo'naltiriladi va iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modelda tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar ham keltirilgan. Xususan, Asset Quality Ratio (aktivlar sifati koeffitsiyenti), Capital Adequacy Ratio (kapital yetarliligi koeffitsiyenti), Return on Assets – ROA (aktivlar rentabelligi) hamda Return on Equity – ROE (kapital rentabelligi) kabi indikatorlar bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi va rentabelligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar bank resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda bank risklarini boshqarish darajasini baholash imkonini beradi.

Shuningdek, rasmda bank faoliyati samaradorligini ta'minlovchi institutsional omillar ham ko'rsatilgan. Bular qatoriga moliya institutlari o'rtasidagi hamkorlik, davlat tomonidan amalga oshiriladigan nazorat, moliyaviy ta'lim tizimi hamda axborot tizimlari va tahlil markazlari kiradi. Ushbu omillar bank tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash hamda moliyaviy xizmatlar bozorida shaffoflikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Rasmda alohida ta'kidlangan Yaponiya taraqqiyot banki modeli banklar va korxonalar o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish, markaziy axborot kengashi orqali moliyaviy ma'lumotlar almashuvini ta'minlash hamda gorizontalar kompaniyalar guruhlarini orqali iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga asoslangan. Mazkur tizim bank faoliyati samaradorligini oshirish bilan birga iqtisodiyotning real sektorini barqaror moliyalashtirish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, Yaponiya bank tizimi tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish banklar, moliyaviy institutlar va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish, bank faoliyatini zamonaviy moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash hamda institutsional boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'minlanadi. Ushbu tajribalarni mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash tijorat banklari samaradorligini oshirish, bank tizimining moliyaviy

³¹ Muallif ishlanmasi

barqarorligini mustahkamlash hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yaponiya bank tizimida bank samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik hamda risklarni boshqarish tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Yaponiya banklarida kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) hamda likvidlik ko'rsatkichlari bank faoliyati barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, banklar kredit portfeli sifatini nazorat qilish hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish orqali bank faoliyati samaradorligini oshirishga erishadi.

Singapur bank tizimi esa bank faoliyatining yuqori samaradorligi va innovatsion rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakat bank tizimida bank samaradorligini baholashda ROA, ROE va NIM ko'rsatkichlari bilan bir qatorda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish kabi omillarga katta e'tibor qaratiladi. Singapur banklari zamonaviy fintech texnologiyalarini keng joriy etish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish hamda bank operatsiyalarining samaradorligini ta'minlashga erishgan.

Xulosa. Tijorat banklari samaradorligini oshirishni baholashning xorijiy banklar tajribasi hamda ushbu tajribalarni mamlakatimiz bank tizimi faoliyatida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlar bank tizimida bank samaradorligini oshirish kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bunda bank faoliyatini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR) hamda kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) kabi moliyaviy ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu indikatorlar bank faoliyatining daromadlilik darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Singapur bank tizimida bank samaradorligini oshirish zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda risklarni samarali boshqarish tizimini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish hamda moliya institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bank faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yaponiya bank tizimi tajribasi esa banklar, moliyaviy institutlar va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi institutsional hamkorlikni rivojlantirish, bank faoliyatini kompleks moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash hamda bank tizimida axborot almashuvini rivojlantirish orqali bank samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur tajribalar bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchiidan, tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini keng joriy etish hamda bank faoliyatini kompleks baholash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchiidan, bank faoliyatida operatsion samaradorlikni oshirish maqsadida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, bank operatsiyalarini avtomatlashtirish hamda zamonaviy fintech texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

Uchinchiidan, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, yangi bank mahsulotlari va innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali bank daromad manbalarini kengaytirish va bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish lozim.

To'rtinchiidan, bank tizimida risk-menejment tizimini takomillashtirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish orqali bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchiidan, xorijiy banklar tajribasini hisobga olgan holda banklar, moliya institutlari va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, moliyaviy axborot tizimlarini takomillashtirish hamda bank tizimida shaffoflikni oshirish zarur.

Umuman olganda, xorijiy banklar tajribasini chuqur o'rganish hamda ularning samarali boshqaruv mexanizmlarini mamlakatimiz bank tizimi faoliyatiga moslashtirish tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. (Mirziyoyev Sh.M., "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmon, 12 may 2020 yil).

2. Mirziyoyev Sh.M., Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 29 dekabr.

3. Mamonov, M., Vernikov, A. (2017). Bank ownership and cost efficiency: New empirical evidence from Russia. *Economic Systems*, Vol. 41, No. 2, 305–319. DOI: 10.1016/j.ecosys.2016.08.001. 4. Alhassan, A., Tetteh, M. (2016). Non-Interest Income and Bank Efficiency in Ghana: A Two-Stage DEA Bootstrapping Approach. *Journal of African Business*, Vol. 18, No. 1, 124–142. DOI: 10.1080/15228916.2016.1227668.

5. Almanza, C., Rodríguez, J. (2018). Profit Efficiency of Banks in Colombia with Undesirable Output: A Directional Distance Function Approach. *Economics: The Open-Access, Open-Assessment E-Journal*, No. 2018–30, 1–18. DOI: 10.5018/economics-ejournal.ja.2018–30

6. Belousova V., Karminsky A., Myachin N., Kozyr I. (2019). Bank Ownership and Efficiency of Russian Banks. *Emerging Markets Finance and Trade*, 1–18. DOI: 10.1080/1540496x.2019.1668764.

7. Zhou, Z., Placca, E., Jin, Q., Liu, W., Wu, S. (2017). Banks efficiency and productivity in Togo after the financial liberalization: a combined Malmquist index

approach. *INFOR: Information Systems and Operational Research*, Vol. 56, No. 3, 317–331. DOI: 10.1080/03155986.2017.1337416.

8. Osuagwu, E., Isola, W., Nwaogwugwu, I. (2018). Measuring Technical Efficiency and Productivity Change in the Nigerian Banking Sector: A Comparison of Non-parametric and Parametric Techniques. *African Development Review*, Vol. 30, No. 4, 490–501. DOI: 10.1111/1467-8268.12357.

9. Yang, G., Li (2019). Role of Bank Regulation on Bank Performance: Evidence from AsiaPacific Commercial Banks. *Journal of Risk and Financial Management*, Vol. 12, No. 3, 131. DOI: 10.3390/jrfm12030131.

10. Moudud-Ul-Huq, S. (2018). Banks' capital buffers, risk, and efficiency in emerging economies: are they counter-cyclical? *Eurasian Economic Review*, Vol. 9, No. 4, 467–492. DOI: 10.1007/s40822-018-0121-5.